

## MAKTABDA TEXNOLOGIYA FANINI O‘QITILISHI – IJTIMOIIY TARAQQIYOTMI YOKI OILAVIY MUAMMO?

**Toxirov O‘ktamjon Otaqo‘ziyevich**

*Yangi asr universiteti dotsenti*

*E-mail: taavvuz@gmail.com; Tel.: +99890-372-01-04*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada maktabda o‘qitiladigan texnologiya fanining jamiyat va oila hayotidagi o‘rni nazariy, ilmiy va metodik jihatdan tahlil qilingan. Texnologiya fanining ayrim hollarda jamiyat tomonidan yetarlicha qadrlanmayotgani, uning ahamiyati noto‘g‘ri talqin qilinayotganini asoslab berilgan. Shu bilan birga, rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar (Xitoy, Finlyandiya, Yaponiya) tajribasi misolida texnologiya ta‘limi ijtimoiy taraqqiyotning muhim omili ekani yoritilgan. Maqolada texnologiya fanining o‘quvchilarda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish, mehnat madaniyatini oshirish hamda oilaviy totuvlikka ijobiy ta‘sir ko‘rsatishi ilmiy dalillar asosida ochib berilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *texnologiya fani, globallashuv, ijtimoiy taraqqiyot, kasb-hunar, mehnat madaniyati, “Hayot fani”, drayver, oilaviy totuvlik, oilaviy barqarorlik, STEAM, kasbiy yo‘naltirish.*

**Аннотация:** *В данной статье теоретически, научно и методически проанализирована роль предмета «Технология», преподаваемого в школе, в жизни общества и семьи. Обосновано, что в ряде случаев данный учебный предмет недостаточно ценится обществом, а его значение нередко интерпретируется неверно. Вместе с тем на примере опыта развитых и развивающихся стран (Китай, Финляндия, Япония) показано, что технологическое образование является важным фактором социального развития. В статье на основе научных данных раскрывается влияние предмета «Технология» на формирование у учащихся практических навыков, повышение культуры труда, а также его положительное воздействие на семейную сплочённость и устойчивость.*

**Ключевые слова:** *технология, глобализация, социальное развитие, профессиональное образование, культура труда, «наука о жизни», драйвер, семейная сплочённость, семейная устойчивость, STEAM, профессиональная ориентация.*

**Abstract:** *This article provides a theoretical, scientific, and methodological analysis of the role of the school subject Technology in social and family life. It substantiates that in some cases this subject is not sufficiently valued by society and its significance is often misinterpreted. At the same time, drawing on the experience of developed and developing countries such as China, Finland, and Japan, the article highlights that technology education is a key factor in social development. Based on scientific evidence, the study reveals the role of the Technology subject in developing students’ practical skills, enhancing work culture, and positively influencing family harmony and stability.*

**Keywords:** *technology education, globalization, social development, vocational skills, work culture, “life skills education”, driver, family harmony, family stability, STEAM, career guidance.*

## Kirish

Globalashuv va texnik taraqqiyot sharoitida ta'lim tizimi oldiga qo'yilayotgan asosiy vazifalardan biri – o'quvchilarni hayotga, mehnat faoliyatiga va ijtimoiy munosabatlarga tayyorlashdan iboratdir. Bu jarayonda umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladigan texnologiya fanining ahamiyati beqiyos. Ammo to'plangan tajribalar va o'tkazib borilayotgan tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, fanni olim va mutaxassisleri tomonidan rivojlantirib borilishiga qaramasdan, fanga nisbatan hanuzgacha ikkinchi darajali fan sifatida qaralmoqda. Bunda nafaqat pedagoglar jamoasi balki ta'limning mutasaddi rahbarlarining ongida ham shunday qarashlar borligi achinarlidir. Aslida esa jahon ta'lim tizimida texnologiya fani nafaqat ijtimoiy taraqqiyot, balki oilaviy barqarorlikni ta'minlashda muhim o'rin tutadi.

Bu borada ko'plab olimlarimiz tomonidan texnologiya tushunchasiga turlicha ta'riflar berilgan. Jumladan, Q.T.Olimov, va. b. “Zamonaviy ta'lim texnologiyalari” o'quv qo'ldanmasida: Texnologiya – subyekt tomonidan obyektga ko'rsatiladigan ta'sir natijasida subyektida sifat o'zgarishiga olib keluvchi jarayon tushuniladi. Texnologiya har doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalanib, obyektga yo'naltirilgan maqsadli amallarni muayyan ketma-ketlikda bajarishni ko'zda tutadi.

N.N.Azizxodjaeva “Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat” o'quv qo'llanmasida: Texnologiya – ishlab chiqarish jarayonida ashyolar, materiallar, yarim tayyor mahsulotlarni tayyorlash, qayta tayyorlash, ashyoning holati, xususiyati, shaklini o'zgartirish metodlari to'plami.

I.Karimov “Mehnat ta'limi o'qitish texnologiyalari” qo'llanmasida: Texnologiya – atamasi dastlab ishlab chiqarish sohasida qo'llanilgan bo'lib, unga materiallarga, yarim tayyor mahsulotlarga ishlov berish, ularning tarkibini, xususiyatlarini, ko'rinishini, tayyorlanishini, qo'llanish sohasini o'zgartirish yo'llari haqidagi fan sifatida qaralgan.

Pedagogik lug'atlarda “Texnologiya” so'zi yunoicha “teche” so'zidan olingan bo'lib, “mahorat”, “san'at” va “logos” so'zi ta'limot ma'nosini bildiradi.

Pedagogika nazariyasiga ko'ra, ta'limning asosiy vazifasi – hayotga tayyor shaxsni shakllantirishdir. Xorijiy davlatlar olimlaridan J.Dyui, L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev ta'limotlarida amaliy faoliyat shaxs rivojining markazi sifatida e'tirof etiladi. Shuningdek, ta'limning samaradorligi amaliy faoliyat bilan uzviy bog'liq ekanini ta'kidlashadi. Texnologiya fani o'quvchilarda nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg'unlashtirish imkonini beradi. U orqali o'quvchi nafaqat ma'lum bir buyum yaratishni, balki rejalashtirish, loyihalash, modellashtirish, konstruksiyalash, tahlil qilish, muammoni hal etish kabi ko'nikmalarini ham egallaydi.

Yuqoridagi tahlillardan ma'lum bo'ladiki, ijtimoiy taraqqiyot va oilaviy barqarorlikni ta'minlashda o'quvchilarga texnologiya fanini o'rgatish zaruratdir. Bu zarurat o'quvchilarni ijtimoiy hayotga moslashuvini ta'minlaydi, oilalarda tinchlik va totuvlikni barqarorlashtiradi.

Asosiy qism. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'rgatilayotgan texnologiya faniga ikkinchi darajali fan sifatida qarashlik, fanni rivojlantirishga yetarli darajada e'tibor qaratmaslik jamiyat hayotini tanazzulga olib keladi.



Bugungi kunda texnologiya fanining ahamiyatini to‘liq anglamaslik quyidagi omillar bilan izohlanadi:

- fan mazmunini faqat qo‘l mehnati bilan cheklab qo‘yish;
- zamonaviy texnika va texnologiyalar haqida axborot yetishmasligi;
- ota-onalar va ayrim rahbar kadrlarning pedagogik savodxonligi pastligi.

Bu kabi omillarni oldindan anglab yetgan soha olimlaridan professorlar Sh.S.Sharipov, N.A.Muslimov, O.A.Qo‘ysinov, D.N.Mamatov, O‘.Q.Tolipov, I.Karimov, PhD, dotsent F.Nasrullayeva, dotsent O‘.O.Toxirov, oliy toifali mutaxassis U.Bozorovlar birgalikda fan bo‘yicha Davlat ta‘lim standarti, fanning konsepsiyasi, malaka talablari, o‘quv dasturlari hamda yangi avlod darsliklarini yaratishgan va amaliyotgan joriy qilishgan. Shunday bo‘lsada, texnologiya fani hunuzgacha fanlar lokomotivi bo‘lishiga qarshiliklar mavjud. Buning asosiy sababi, bu fan amaliy fan bo‘lganligi uchun moliyaviy harajatlardan qochib kelinayotganligidadir.

Texnologiya fani jamiyat ijtimoiy taraqqiyoti va oilaviy barqarorlikni ta‘minlashda muhim o‘rin tutganligini anglagan, Xitoy, Finlyandiya va Yaponiya kabi davlatlarda texnologiya fani strategik ahamiyatga ega fan bo‘lib, u davlat milliy taraqqiyotining muhim tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Bu mamlakatlarda texnologiya ta‘limi ijtimoiy taraqqiyotning drayveri sifatida xizmat qilmoqda.

Texnologiya fanining amaliy va ijtimoiy ahamiyati doirasida o‘quvchilar:

- yog‘och, metall, polimer, kompozitsion materiallarga ishlov berish;
- duradgorlik va slesarlik ishlari;
- gazlama va to‘qimachilik materiallari bilan ishlash;
- tikuvchilik va pazandachilik asoslari;
- robototexnika va texnik modellashtirish kabi muhim ko‘nikmalarni o‘zlashtiradilar.

Bu esa o‘quvchini mustaqil hayotga tayyorlaydi, uning jamiyatda o‘z o‘rnini topishiga yordam beradi.

Texnologiya fanini puxta o‘zlashtirish oilaviy totuvlikni ta‘minlaydi deb baralla ayta olamiz. Chunki, olib borilgan kuzatishlar va ilmiy tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, oilaviy nizolarning katta qismi maishiy va iqtisodiy muammolar bilan bog‘liq. Texnologiya fanini puxta o‘zlashtirgan o‘quvchilar:

- uy-ro‘zg‘or ishlarida faol bo‘ladi;
- oila a‘zolariga amaliy yordam ko‘rsata oladi;
- mehnat va mas‘uliyatni qadrlaydi.

Natijada oilada o‘zaro hurmat, bir-birini tushunish va hamkorlik muhiti shakllanadi. Bu esa hozirgi globallashuv muhitida jamiyatda tashkil qilinayotgan yosh oilalar uchun o‘ta muhim zaruriyat omilidir.

Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida o‘quvchilarni aqliy va jismoniy mehnat turlari, jarayonlari hamda kasblar bilan tanishtirish, ularda dastlabki bilim, mehnat ko‘nikmalari, malakalarini, mehnatga qiziqish hamda mehnatsevarlikni shakllantirish, mehnat va kasblarni qadrlashga, ularning ahamiyatini tushunishga o‘rgatish hamda jamiyat va shaxs farovonligi yo‘lida yashash manbai bo‘lgan mehnat faoliyatiga qo‘shilishlariga imkon beruvchi shaxsiy

sifat va tafakkurlarini rivojlantirish, qiziqishi, mayl va qobiliyatiga xos kasb-hunar tanlashiga zamin yaratish texnologiya fanining asosiy maqsadlaridan hisoblanadi.

Texnologiya fani boshqa umumta’lim fanlaridan bir qator o’ziga xos xususiyatlari bilan tubdan farq qiladi:

fanni o’qitishda amaliy mazmun ustuvorligi;

ishlab chiqarish bilan bevosita uzviy va chambarchas bog’liqligi;

STEAM fani ekanligi, STEAM ta’limi interditsiplinarlikka egaligi;

o’qitishda o’g’il va qiz bolalar mehnatining o’ziga xosligi;

o’ziga xos moddiy-texnik ta’minot bilan bog’liqligi;

boshlang’ich sinflardan boshlab mavzularga mos kasb-hunar tanlashga yo’llash ishlarining olib borilishi;

fan o’qituvchilari va ustalarning kasbiy mahoratini shakllanishi bilim, ko’nikma va malakalarining o’ziga xosligi;

texnologiya fani o’quvchilarni ta’limning keyingi bosqichi professional ta’lim tizimida o’qishni davom ettirishga zamin yaratadi.

### **Xulosa**

Umumiy o’rta ta’lim maktablarida texnologiya fanini o’qitishni oilaviy muammo sifatida baholash asossizdir. Aksincha, mazkur fan ijtimoiy taraqqiyot, mehnat madaniyati va oilaviy totuvlikni ta’minlashda muhim omil hisoblanadi. Muammo fanning o’zida emas, balki uni mazmunini, jamiyat kelajagi uchun kerakligini to’g’ri anglash va samarali tashkil etish uchun zamin yaratishdadir.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda zamonaviy talablar asosida texnologiya ta’limini modernizatsiyalashning asosiy omillari sifatida quyidagilarni keltirmoqchimiz:

1. Jamiyatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar asosida umumiy o’rta ta’lim mazmuni va sifatiga qo’yiladigan talablarni keskin ortib borishi.

2. Davlat ta’lim standartlari talablarining ta’lim sifati va kadrlar tayyorlashga qo’yiladigan xalqaro talablarga muvofiqligini ta’minlash.

3. Ta’lim sohasi rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ta’lim sohasida me’yorlarni belgilash tajribasidan milliy xususiyatlarni va mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarni hisobga olgan holda takomillashtirish.

4. Ta’lim jarayoniga milliy, umuminsoniy va ma’naviy qadriyatlar asosida o’quvchilarni tarbiyalashning samarali shakl, usul va vositalarini keng joriy etish.

5. O’quv-tarbiya jarayoni samaradorligini va natijaviyligini ta’minlashda pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, sun’iy intellekt va raqamli ta’lim resurslarini tadbiiq etish.

6. Kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta’lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasi uzviyligini ta’minlash.

7. Erkin bozor munosabatlariga va xususiy mulk ustuvorligiga asoslangan iqtisodiyotni rivojlanishi hamda tadbirkorlik faoliyatini keng joriy qilishda o’quvchi shaxsi, uning intilishlari, qobiliyati va qiziqishlari ustuvorligi.

8. Sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini kengaytirish.

9. Mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatining ustivorligi.

10. Ta’lim va o’qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish.

Bugun jamiyatda texnologiya fanining o’rni haqida qarashlar ikki xil: ayrimlar uni ikkinchi darajali fan sifatida baholasa, rivojlanayotgan davlatlar bu fanni milliy taraqqiyotning asosiy tayanchi deb hisoblamoqda. Aslida esa texnologiya fani nafaqat iqtisodiy rivojlanish, balki oilaviy totuvlik va ijtimoiy barqarorlikka ham bevosita ta’sir ko’rsatadi.

Oiladagi nizolarning asosiy sabablaridan biri – maishiy va iqtisodiy muammolardir. Texnologiya fanini o’quvchilarga o’rgatish esa aynan shu muammolarga yechim bo’la oladi:

- o’g’il bolalar maishiy ta’mirlash ishlarini biladi;
- qiz bolalar texnik va amaliy ko’nikmalarga ega bo’ladi;
- oila a’zolari o’zaro yordam va hamkorlikka o’rganadi.

Natijada: maktabda o’qitiladigan texnologiya fani oilalardagi ajrimlarga to’g’ridan-to’g’ri sabab emas. Aksincha, u to’g’ri tashkil etilganda: oilaviy mas’uliyatni, mehnatsevarlikni, o’zaro hurmatni kuchaytiradi.

Muammo fan mazmunida emas, balki uni qabul qilish madaniyatidadir. Bundan ma’lum bo’ladiki, texnologiya fani oilaviy muammo emas, aksincha oilaviy barqarorlik omilidir.

Texnologiya fani o’quvchilarda aqliy bilimni amaliy harakat bilan bog’laydi; ularni ishlab chiqarish, maishiy va ijtimoiy hayotga tayyorlaydi; mehnat madaniyati va mas’uliyatni shakllantiradi; kasb-hunarlarga yo’naltirishda poydevor bo’ladi.

Unutmang! Texnologiya fani – bu oddiy “qo’l mehnati” emas, balki “Hayot fani”dir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**

1. Umumiy o’rta ta’limning Milliy o’quv dasturi loyihasi. Toshkent: RTM, 2020.-80 b.
2. Вьготский Л.С. Мышление и речь. – М.: Педагогика, 1999.
3. Дьюи Дж. Демократия и образование. – М.: Педагогика, 2000.
4. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. – М.: Политиздат, 2005.
5. Tohirov O’.O. va boshq. Texnologiya: umumiy o’rta ta’lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. – T.: “Sharq”, 2020.-240 b.
6. Sharipov Sh.S., Qo’ysinov O.A., Tohirov O’.O. va boshq. Texnologiya: umumiy o’rta ta’lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. – T.: “Sharq”, 2021.-240 b.
7. Qo’ysinov O., Muslimov N., Mamatov D., Toxirov O’. va boshq. Texnologiya I qism. Umumiy o’rta ta’lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. – T.: “Novda Edutainment”, 2024.-128 b.
8. Qo’ysinov O., Muslimov N., Mamatov D., Toxirov O’. va boshq. Texnologiya II qism. Umumiy o’rta ta’lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. – T.: “Novda Edutainment”, 2025.-128 b.